

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.G.Sabirdinov

O'zbek tarixiy romani: Oybek va Qodiriy 6

G.M.Oripova

Aylor ijodkorlar she'riyatida daraxt obrazi tasviri 9

M.A.Jo'rayeva

Munavvar Qori Abdurashidxonov ijodida safar janri 13

G.Muhammadjonova

Hayot haqiqati, tarixiy haqiqat va badiiy idrok 17

И.А.Эшонкулов

Tavsiysi mushahhasi tazkiiraҳoi Ҳашмати Бухорай 21

B.X.Murtazoyev, F.O.Hafizova

“Bobotog”essesida peyzaj: flora tasvirida badiiyilik 28

И.А.Эшонкулов, З.П.Аҳмадҷонова

Ситоиши хирад ва хирадгустарй дар “Шоҳнома”-и Ҳаким Фирдавсий 34

D.T.Musayeva

Elizabet Gaskell ijodiga nazar 39

Н.Н.Қаюмов

Muammoi shinoxti sanъati tashxis dар поэтикан мумтози форсу тоҷик 42

Sh.T.Ibragimov

“Babur the tiger” romani o'zbekcha tarjimasida metafora ifodasi 47

J.T.Ibragimov

“Qutadg'u bilig” istioralarining poetik o'ziga xosliklari xususida chuqr mulohaza 55

A.A.Akbarov

Vatanga muhabbatning lirik ifodasi 61

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova

Farg'ona davlat universiteti tilshunosligi: kecha va bugun 66

Г.М.Хошимов, М.Г.Хошимов, Н.А.Абдуллаева, Д.Ш.Назарова, Д.А.Ахмедова

Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок 71

Z.V.Alimova

Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida sifat turkumiga oid forsiy leksemalar xususida 81

A.B.Uralov

Ayrim kengaygan shakllar taraqqiyoti hamda ularda nomutanosibliklar 86

Z.A.Davlataliyeva

Ingliz tili darslarida talabalarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli va vositalari 90

Н.А.Абдуллаева

Сопоставительное изучение провербем, вербализующих концептуальную оппозицию «ум/глупость» в английском и русском языках 95

Н.А.Отахонова

Проблемы общей теории и классификации лингвокультурой 100

B.B.G'apporov

Ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda fe'l komponentli kollokatsiyalarning qo'llanilishi 106

D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova

Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodi" nomli she'rida pretsedent nom tahlili 112

N.Fidan

Ellipsis in English text linguistics 115

M.O.Qulmamatova

Ingliz va o'zbek tillaridagi “boylik/wealth va kambag'allik/poverty” konseptlarining o'xshashlik va farqli jihatlari 120

N.X.Boboqulova

Ingliz va o'zbek tillarida head/bosh somatik komponentli maqollarning konseptual tahlili 124



УО'К: 821.111/82-1/29

“BABUR THE TIGER” ROMANI O’ZBEKCHA TARJIMASIDA METAFORA IFODASI**METAPHORICAL EXPRESSION IN THE UZBEK TRANSLATION OF THE NOVEL
“BABUR THE TIGER”****МЕТАФОРЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ В УЗБЕКСКОМ ПЕРЕВОДЕ РОМАНА “BABUR
THE TIGER”****Ibragimov Shexrozbek To‘lqinjon o‘g‘li** 

Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti,

Annotatsiya

Badiiy san’atlar ichida metafora “so’z ichidagi so’z” deb atalishi bejiz emas. So’nggi yillardagi tadqiqot ishlarda metaforani bir necha soha nuqtai-nazardan o’rganib chiqilmoqda. Ushbu maqolada taniqli biografik romanlar mualifni Harold Lamb tomonidan yozilgan “Babur the tiger” romanı asliyati mavjud metaforalarini uning o’zbekcha tarjimasida o’zaro qiyosiy tahlil qilish asosiy maqsad qilib belgilangan. O’zbek tarjimonasi asarni tarjima qilishda adekvat, so’zma-so’z va ekvivalent tarjima usulidan foydalangan. Tarjima matnida asliyatda berilgan metaforalar ayrim hollarda ifodanmaydi. Bunga sabab, tarjima jarayonida mualif ijodiylik bilan badiiylikni saqlashga intilishi sabab bo’lgan. Tahlillardan yana bir qiziq narsa ayon bo’ldi. Mutarjim asliyatda o’z ma’nosida kelgan so’z va so’z berikmalarni tarjima matnida metafora bilan ifodalagan qismlar ham talaygina topiladi.

Аннотация

Недаром в искусстве метафору называют «словом в слове». В последние годы исследования рассматривали метафору с нескольких точек зрения. Основная цель данной статьи – провести сравнительный анализ метафор, присутствующих в оригинальном романе «Бабур-тигр» известного биографического романиста Гарольда Лэмба в его переводе на узбекский язык. При переводе произведения узбекский переводчик использовал адекватные, дословные и эквивалентные методы перевода. В некоторых случаях метафоры, приведенные в исходном тексте, не отражены в переведенном тексте. Это связано с желанием автора сохранить креативность и артистизм в процессе перевода. В результате анализа выяснилась еще одна интересная вещь. В переведенном тексте также имеется много отрывков, в которых переводчик использует метафоры для выражения слов и словосочетаний, которые изначально имели собственное значение.

Abstract

It is not without reason that metaphor is called a “word within a word” in the arts. In recent years, metaphor has been studied from various perspectives. The main goal of this article is to conduct a comparative analysis of the metaphors in the original novel Babur the Tiger by the renowned biographical novelist Harold Lamb, and its Uzbek translation. In translating the work, the Uzbek translator employed adequate, word-for-word, and equivalent translation methods. In some cases, metaphors from the original text are not expressed in the translation. This is due to the translator’s desire to preserve creativity and artistry in the translation process. The analysis also revealed that many instances exist where the translator uses metaphors to express words and word combinations that had their own literal meaning in the original.

Kalit so’zlar: metafora, badiiy san’atlar, tarjima, asliyat, ko’chim, o’xshashlik, tasvir, lug’atlar**Ключевые слова:** метафора, изобразительное искусство, перевод, оригинальность, перенос, сходство, образ, словарь**Key words:** metaphor, visual arts, translation, originality, transfer, similarity, image, dictionaries.**KIRISH**

Sharq mumtoz poetikasida metafora “istiora” termini bilan yuritilishi bizga ma’lum. Zero, sharqda bu hodisa, avvalo arab, keyinchalik fors va turkiy mutafakkirlar tomonidan yaratilgan ilmiy risolalarda batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Mamlakatimizda “istiora” hozirgi davrgacha yaratilgan ilmiy risolalarda bir-birini takrorlaydigan ta’riflar bilan keltirilgan. Y.Ishoqov, T.Boboyev kabi olimlarning ta’riflari bunga yaqqol misoldir. Boshqa olimlarning ta’riflari ham deyarli bir-birini takrorlaydi. Birinchi bobda metafora yuzasidan qilingan tadqiqot ishlarinining nazariy tahlili amalga oshirilganligi bois, bu erda uning ta’ifi borasida ikki og’iz so’z aytish o’rinli.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Metafora – lug’aviy jihatdan biror narsani oriyat (omonaqt)ga olish degan ma’noni bildiradi, lekin adabiyotda majozning bir ko’rinishi bo’lib, biror bir so’z o’rniga boshqa so’z ishlatalishga aytildi” [16.50]. Demak, yuqoridagi ta’rifga ko’ra, oriyatga olingan so’z o’z ma’nosida emas, balki majoziy, ko’chma ma’noda vaqtinchalik vazifa bajaradi. Masalan: sharq adabiyotida “may” “ishq”, “qadah” “ko’ngil”, “oy” “mashuqa” so’zlari bilan badiiy ko’chim ko’p qo’llanadi. Aslida berilgan so’zlarning o’z ma’nosini mavjud bo’lib, shoirlar ularning ko’chma ma’nosiga tez-tez murojaat qilishadi.

Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov o’zining “Adabiyot nazaryasi asoslari” nomli kitobida “ko’chimning badiiy nutqda eng ko’p va samarali qo’llanuvchi turi istiora – metafora hisoblanadi” [15.276] deya keltirib o’tgan. O’xshatishga asoslangan tasviriy vositalar ichida metafora e’tiborga sazovor. Chunki, metafora vositasida yaralgan birliklar omma, xalq tilida ko’p qo’llanganligidan ular bir qarashda ma’jiziyo ma’no yo’qdek ko’rinadi. Buni olim J.R.Serl o’lik (dead) metafora termini bilan ifodalagan [14.76-86].

So’nggi yillarda yurtimizda metaforani tarjimashunoslik fani doirasida juda ko’plab tadqiqot ishlari olib borilgan hamda bu yondoshuv hali davom etadi. G.Rofiyeva, G.Nasrullayeva, Sh.Maxmaraimova, O.Dirova, G.Qobiljonova, E.Allanazarov kabi olimlarning ishlarini eslab o’tish joiz. Xususan, Tadqiqotchi G.Rofiyeva o’zining “O’zbek tilidan fransuz tiliga konseptual metaforalar tarjimasining o’ziga xos xususiyatlari (Erkin A’zam asarlari asosida)” nomli tadqiqot ishida “metafora (yunoncha metaphor – ko’chirish, ko’chim) so’z yoki iborani o’xshashlik yoki o’xshatishga asoslangan ko’chma ma’noda ishlatalish va shunday ma’noda ishlataligan so’z va ibora” deya O’zbek tilining izohli lug’atidan olingan ta’rifni aynan keltirib izohlaydi. Bundan tashqari, G.Rofiyeva metaforani oddiy jumlalardan farqini keltirib, quydagicha ta’rif bergan: “metaforani oddiy jumladan farqi, so’z mohiyatini o’zgarish bosqichlari, ushbu tushunchani boshqa fanlar bilan aloqadorligi, metafora hosil bo’lishiga turki bo’luvchi kabi omillar keltirilgan” [13.10]. Tadqiqotchi bu fikri bilan konseptual metaforani hosil bo’lishi uchun falsafa kabi fanlarning mohiyatini tushinish zarur deb ko’rsatadi.

Tadqiqot ishida H.Lambning “Babur the tiger” romanini asliyati va G’.Sotimovning o’zbekcha qilingan tarjima asos qilib olingan. Xususan, asliyatda aniqlangan metafora leksik-semantik tomonlama tahlil qilinib, uning ifodasi tarjima matni bilan qiyosiy tahliliga tortilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

H.Lambning “Babur the tiger” romanida Bobur mirzoning tug’ilishidan boshlanib toki hayotining so’nggi kunlarigacha bo’lgan davrlar nasriy shaklda ifoda qilingan. Romanda badiiy tasvir vositalarning alohida o’rni bor. Xususan, metaforani muallif proza va peyzaj tasvirida mohirona qo’llagan. Bu roman mohir tarjimon G’.Sotimov tomonidan “Bobur-Yo’lbars” nomi ostida o’zbek tiliga tarjima qilingan. Ushbu tadqiqotda roman asliyati va uning o’zbekcha tarjimasini bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirish ishning dolzarbigini oshiradi. Buning uchun, romandagi metafora, metonimiya va mubolag’a vositasida berilgan jumlalar aniqlanib, ularni tarjimada ifodalanishi bilan qiyosiy o’rganilishi zarur.

Metafora g’arbda nafaqat leksik-semantik jihatdan, balki pragmatik, kognitiv, psixologik va falsafiy tomonlama tadqiqi amalga oshirilgan. Bunday yondoshuv metaforani o’rganishga bo’lgan qiziqishni yanada orttiradi. Bundan tashqari, g’arb olimlari metaforani tashbehning bir shakli sifatida keltirib, “vositasiz o’xshatish”, “yashirin o’xshatish” [12.146] nomlari ostida ham keltirilgan. Buni “Babur the tiger” romanida berilgan metaforalarni o’zbekcha tarjimasida ifodalanishi bilan qiyoslasak.

H.Lamb:

Yakub could make verses with such double meanings. (17.27)

Ushbu gapda Hasan Yaqubbek gapga chechanlik holati “make verses with such double meanings” so’z birikmasi bilan berilgan. Bu erda, yashirin o’xshatish “double meanings” birikmasini “make” fe’li bilan bog’lab hosil qilingan. Ikki so’z birikmasi ayro holatda o’z ma’nosida keladi, ammo yuqoridagi jumlada ular birikib “yashirin tashbeh”ni ifodalagan. Ya’ni, Hasan Yaqubbek so’zga ustaligi shundaki, bir so’zni ikki ma’noda qofiyali tarzda qo’llashi jumla uchun pragmatik maqsad vazifasini bajargan. Bu ma’no jumlada yashirin.

G’.Sotimov:

ADABIYOTSHUNOSLIK

Hasan Yaqubbek shoortabiat yigit bo'lib, nuqtida so'z o'yinlarini ko'p ishlatardi. (18.25)

O'zbek mutarjimi ingliz tilidagi metaforani tarjimada qayta yaratgan deyish mumkin. Buning sababi, u asliyatda berilgan "make verses with such double meanings" birikmasini yanada yashirin ekvivalentini "so'z o'yinini ishlatmoq" tarzida keltirgan. Albatta, tarjimon "so'z o'yini ishlatish" birikmasi o'zbekzabon o'quvchiga "gapga chechanlik, so'zga ustalik" ma'nosida tushunishini bilgan. Demak, mutarjim ushbu jumla tarjimasida adekvat almashtirish yo'lidan borgan. Ya'ni, u "asliyatdagi so'z va iborani tarjima tilidagi teng ma'noli so'z va iboralar bilan almashtirgan" [11.12] va metaforani tarjima qilinayotgan til egalariga tushunarli, qayta yaratilgan variantini taklif qilgan.

Tarjima matnida asliyatda berilmagan bir tasvir keltirilgan. Ya'ni, ingliz tilida Hasan Yaqubbekni shoortabiat ekanligi haqida aniq bir so'z yuritilmaydi. Bizningcha tarjimon "make verses" (qofiyalar hosil qilmoq, ma'noli, qofiyali so'zlamoq) fe'lli birikmasini shunday bergan bo'lishi mumkin. Balki G.Sotimov bu birlikni "shoortabiat yigit" tarzida tushungandir.

Romanda Bobur mirzoning ona tomonidan bobosi Toshkent hokimi Yunusxon Andijonga kela olmasligi bilan bog'liq epizod keltirilgan. Ya'ni, Mog'ulstondan yo'llangan navkarlarni ketib qolishidan chalg'itish uchun qilgan harakatlari ortidagi hodisa sababli Yunusxon Andijonga, shaxzoda nevarasini ko'rgani kelishga kechikadi. Bu kechikish naq bir yilga cho'ziladi. Roman muallifi holatni quyidagicha bayon qiladi:

H.Lamb:

Being a man of wiles, Yunus Khan succeeded in rounding up his errant clans by leading them off to a fresh war. (17.19)

Muallif ushbu jumlada uch o'rinda metaforadan foydalangan. Ular: 1) rounding up his errant clans; 2) leading them off; 3) fresh war. Ularga quyida alohida-alohida tushuntirishlar bersak.

Ingliz tili izohli lug'atida "round" leksemasi "up" predlogi bilan fe'lli birikma hosil qiladi. Ma'nosi "ma'lum bir maqsadlarni ko'zlagan holda insonlar yoki hayvonlarni bir joyga yig'moq" [3.1237] deya keltirilgan. Bu holatda "round" so'zi ko'chma ma'noda qo'llangan. G'arb poetikasida orientlashgan metafora (oriental metaphor) termini mavjud bo'lib, J.Lakoff va M.Jonson bu turdag'i metaforani bir konsept doirasida o'rganadi. Ularga ko'ra orientlashgan metaforada ingliz tilida joylashuvga ishlatiladigan "up", "down", "front", "back" kabi so'zlar majoziy ma'noda ifodalananadi. Jumladagi "up" so'zi ham o'z ma'nosidan "round" so'zi bilan birikkan holda chiqib ketib, o'zbek tiliga tarjima qilinganda, "to'plamoq, yig'moq, jamlamoq" ma'nolarini ifodalagan. Umuman olganda, birinchi metaforaviy birikma "bo'ysinmas qabilalarni birlashtirmoq" ma'nosini berishga xizmat qilgan.

"Leading them off" fe'lli birikmasida xuddi avval tahlil qilingan soz' birikmasidek orientlashgan metafora xosil bo'lgan, chunki uning tarkibida "off" predlogi "lead" fe'lini ma'nosini qisman qayta nomlashga sabab bo'lgan. Inglizcha izohli lug'atda "lead off" "to begin something by doing or saying something" [3, 807] tarzida ta'riflanadi. Demak, "lead" so'zining o'z ma'nosi hisoblangan "boshqarmoq, etaklamoq" tarzidagi ifodasi emas, ko'chma "biror yangi ish-harakatni boshlamoq" ma'nosida jumla kontekstida kelgan. To'g'ri, bu erda "boshqarmoq, etaklamoq" so'zları "boshlamoq" leksemasi bilan sinonimiya hosil qilishi mumkin, ammo "lead off" yangi ishni boshlash haqida ekanligni unutmaslik kerak. Boshqarmoq va etaklamoq leksemalarida ish-harakat allaqachon boshlangan insondan uni davom ettirish talab qilinadi xolos.

Ingliz tilida "fresh" leksemasi ko'pincha oziq-ovqat mahsulotlariiga nisbatan qo'llanib, "yangi, toza" degan ma'nolarda kelishi barchaga ma'lum. Yuqoridagi jumlada esa, "fresh" so'zi "war" so'zini oldidan kelib metafora hosil qilgan. Ya'ni, birlikda urushni tasvirlash uchun ozuqa (yangi yoki eski) manbasi bilan birlashtirilgan bo'lsa, pragmatik jihatdan jangni qabilalar orasida yangilanib boruvchi, zarur va odatiy holatda doimo takrorlanib turuvchi ish-harakat sifatida anglashilishiga xizmat qilgan. Qolaversa, Yunusxonning askarlari "fresh war"da ishtirok etishini sababi sifatida, undan oladigan moddiy qiyamatli mahsulotlarni qo'lga kiritish orqali o'z ma'naviy va ruhiy nafslarini ozuqlantirilishi ham tushunilishi mumkin. Shu sababli, muallif "fresh" so'zini urish tasviri uchun ishlatgan bo'lishi mumkin.

Qisqa berilgan jumladagi metaforalarni batafsil bayoni shuni ko'rsatadiki, H.Lamb qaysi o'rinda metaforani bergan bo'lsa, ular har biri muallifning turli maqsadlarini badiiy ifodasi tarzida yangragan. Bu fikrning isbotini yuqoridagi jumla ta'riflari orqali berildi. O'zbek mutarjimi muallifning

ana shu maqsadlarini anglay olgan yoki yo'qligini aniqlash uchun o'zbekcha tarjimaga e'tibor qaratsak.

G'.Sotimov:

Ziyarak kishi bo'lganidan qo'l ostidagi mo'g'ul navkarlarining xohish-istagini qondirish va ularning Mo'g'ilistonga qaytib ketish fikridan chalg'itish uchun tez-tez atrof-tevarakdagi hududlarga xujum uyushtirib turar va shu bilan askarlarning talonchilikka bo'lgan ishtiyoyqini biroz pasaytirgan bo'lardi. (18.17)

O'zbekcha tarjimada G'.Salomovning "tarjima – qayta tiklash san'ati, asarni boshqa tilda qayta yaratish san'atidir" [4.39] degan fikrini o'zida mujassam qilgan. Ya'ni, mutarjim asliyatda berilgan g'oyani tarjimada tushuntirishlar berishga uringan. Tarjimada uch holatda metafora ifodalangan. Qizig'i shundaki, asliyatda aniqlangan metaforalarning aynan ifodasi emas, balki boshqa birliklar vositasida ular qayta yaratilgan. Fransiyalik yozuvchi, tarjimon hamda olim H.Meschonnik ijodiy tarjimaga ham alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha: "Tarjima yaratiluvchi, poetik va o'zgaruvchan hodisa bo'lib, u uchun til va atrof-muhit alohida ta'sir qiladi." [10.2] Demak, G'.Sotimovda til qoidalari va madaniy-ijtimoiy hayot metaforalarning aynan ifodasini berishga to'sqinlik qilgan bo'lishi mumkin. Bu erda, leksik birliklar va grammatik qoidalarning bir biridan keskin farq qilishini ham hisobga olinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Tarjima matnidan olingan jumlada birinchi metafora hodisasi "qo'l ostidagi" so'z birikmasi bilan ifodalangan. Bu birlik o'z manosida biror insonning qo'l ostida turgan narsani anglatadi. Tarjimada esa, "qo'l ostidagi mog'ul navkarlar" birligi bilan Yunusxon tomonidan boshqariladigan degan ma'no anglashilib, majoziylik ifodalangan. O'zbek tili izohli lu'gatida "qo'l" leksemasining bir necha ma'nolari haqida ma'lumot keltirilib, ularning bittasida "ixtiyorida, izmida" [9.322] degan ta'rif uchraydi. Mutarjim "qo'l ostidagi navkarlarni" deya aynan Yunusxonning izmidagi askarlar ekanligini anglatmoqchi bo'lgan. Ajablanarsi shundaki, asl matnda bu metafora mavjud emas. Xattoki, tarjimada berilgan metafora uchun asliyatda ishora ham topilmaydi.

Tarjimon Yunusxon mog'ul yollanma askarlarini mamlakatlariga qaytib ketish haqidagi o'y fikrga ega bo'lmasligi va bunday g'oya uyg'ongan taqdirda ham ularni o'zgartirishga bo'lgan urunishing maqsadini "fikri chalg'itish" metaforasi bilan ifodalaydi. "Chalg'itmoq" so'zi o'z manosida "biror narsaga alahsib, asosiy ish, mavzu va shu kabilarni unutmoq yoki ulardan chetga chiqmoq; adashmoq" [8.717] tarzida ifodalangan. "Chalg'imooq" so'zi "fikri" leksemasi bilan birikuvidan o'ziga metaforaviy ma'noni yuklab oladi. Tarjimada berilgan bu metafora ham asliyatda ko'zga tashlanmaydi.

So'nggi tarjimada berilgan metafora "ishtiyoyqni pasaytirmoq" so'z birimasi bilan ifodalangan. "Pasaytirmoq" fe'li o'z ma'nosida hajm-miqdorni bildiruvchi ot so'z turkumida oid narsaning ifodasi uchun ishlatalidi. Parchada bu fe'l mavhum ot bilan ishlatalgan va majoziy ma'no hosil qilgan. Asliyatda bu metafora ham uchramaydi.

Xo'sh, tarjimon asliyatdagagi metaforalarni bermay, o'zi hohlagan erkin usuldagagi tarjima bilan muvaffaqiyatga erishmagan deyishga asos bormi? Bu savolning javobi turli olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan bersak. Tarjimashunos olim E.Ochilov yon daftaridagi tarjima haqidagi qaydlardan birida shunday degan edi: "badiiy tarjimaning birinchi sharti go'zallik, keyin anqlik" [11.241]. Demak, G'.Sotimov ham avvalo roman tarjimasida go'zallikka, keyinchalik esa anqlikka e'tbor qaratgan bo'lsa, ne ajab. Ze'ro, "go'zallik qurbanlik talab qiladi". Ammo bu qurbanlik meyordan ortiqcha bo'lmasligi kerak. Tarjimon bizningcha oddiyroq "*Ziyarak kishi bo'lgan Yunusxon bo'yсинmas yollanma askarlarni yangi urushga boshlab borish orgali ularni bir joyga birlashtirishning uddasidan chiqqan edi.*" (tarjima bizniki) deya tarjimani ifodalaganda bo'lar edi. Bunday tarjima bilan G'.Sotimov nafaqat jumlada berilgan metaforalarni qayta yaratishga, balki bazi o'rnlarda kelgan qo'shimcha tushuntirishlarni berishga ehtiyoji bo'lmas edi.

H.Lamb roman uchun "Boburnoma"dan bazi hollarda foydalangani aniq. Avvalo, muallif "Boburnoma"dan olingan qismlarni romanda qo'shtirnoq ichida bergen. Qolaversa, makon tasvirlashda yondoshilgan yo'nalish "Boburnoma" uslubida kelgan. Shunday tasvirlarning birida Bobur mirzo Andijonni tasvirlaydi.

H.Lamb:

Babur soon discovered that his valley consisted of two different kingdoms: the lower villages along the streams and the wild uplands. (17.23)

ADABIYOTSHUNOSLIK

Jumlaga e'tibor bersak, Bobur mirzo Andijonni ikki qismga bo'ladi. Muallif ularni bo'lishda birini tinch, boshqasini "yovvoyi hayot hukm surayotgan" makon tarzada mantiqiy g'oya orqali ifodalagan. Anashu yovvoyi hayot jam bo'lgan tepaliklarda muallif metaforadan mohironalik bilan foydalangan. Mohironalik deyishga sabab, birgini "wild" leksemasini "upland" so'zi bilan qo'llaganlikda. "Wild" so'zini aslida inson yashamaydigan faqatgina yovvoyi tabiat uchun makon bo'lgan joyga nisbatan qo'llash mumkin. Muallif bu metaforaviy so'z birikmasi bilan qonunsizlik va bo'ysinmaslik g'oyalari haqida ma'lumot bermoqchi bo'lgan.

G'.Sotimov:

Bobur tez orada tushundiki, bu vodiy bir-biriga o'xshmaydigan ikki qismidan – daryo va soylarga mo'l quyi qism va ancha o'zlashtirilmagan, yovvoyi hayot hukm surayotgan yuqori qismidan iborat ekan. (18.21)

Tarjimada asliyatda aniqlangan metafora aynan ifodalangan. Faqatgina tarjimada o'zbekcha ifodani go'zallashtirish uchun keltirilgan "hukm surayotgan" so'z birikmasida ham alohida metafora mavjud. Demak, "wild upland" metaforasi to'lig'icha "yovvoyi hayot hukm surayotgan yuqori qism" deya berilganidan ma'lum. Bu erda "yovvoyi hayot" birikmasida bitta metafora hodisasi kuzatilayotgan bo'lsa, "yovvoyi hayot hukm surayotgan" alohida yana bitta shunday poetik hodisa. Demak, mutarjim asliyatdagi parchani aynan tarjima qilgan va bunga yuqoridagi tushuntirishlar hech qanday shubha yo'qligini ko'rsatadi.

Tarjimon "asarni o'z tiliga ag'darar ekan, unda tasvirlangan narsani ifodalash uchun yigirmatalab so'zlar orasidan o'z istganlarini ishlata olmaydi" [4.166]. G'.Sotimov ham o'zbekzabon xalq uchun tasviriylik yanada kuchaytirish uchun "hukm surayotgan" birikmasi bilan bergen. U shunchaki "yovvoyi hayot qismi" deya tarjima qilsa, jumlada g'alizlik paydo bo'lar edi.

Andijon tasviri quyidagi parcha bilan davom etadi.

Andijan, while a pleasant place, blessed by fertile fields and a lively trade, was nothing like a fortress. (17.31)

Bu parchada Bobur mirzo ota yurtini unumdar dalalari va qizg'in savdosi bilan juda yoqimli makon ekanligini xitob qilmoqda. Asliyatdagi jumlada "a pleasant place" va "a lively trade" so'z birikmalari metafora vositasida ifodalangan. Ingliz tilida "pleasant" so'zi o'z ma'nosida yoqimli, umuman kishiga rohat bag'ishlaydigan narsalarga, asosan hid, tam kabi hissiyotlarga nisbatan qo'llaniladi. Bu so'z "place" so'zi bilan birikkanda esa, endi makonning yoqimli hidi nazarda tutilmagan, faqatgina inson ko'zini quvnatadigan ma'nosida majoziy qo'llangan.

Ikkinci metaforaviy birlik "a lively trade" so'z birikmasi bilan berilgan. G.Reijnierse "The value of deliberate metaphors" nomli maqolasida "metafora faqatgina lingvistik shaklda ifodalangan konseptual strukturalarning muammosi sifatida emas, balki tilni foydalanuvchilar o'ttasida muloqot masalasi sifatida qabul qilingan" [7.23] deya fikr yuritadi. Demak, H.Lamb kitobxonga "a lively trade" so'z birikmasi bilan Andijon shahridagi savdo-sotiq holatini qanday ekanligini anglatmoqchi bo'lgan. Ingliz madaniyatida "lively" so'zining ma'nosi "quvnoq, xushchaqchaq, jonli, qizg'in, jo'shqin, chaqqon" [5.298] tarzida ifodalanadi. Shunday ekan, savdoning jo'shqinligi, qizg'inligi va jonliligi asliyatda metafora hosil qilgan.

G'.Sotimov:

Andijon mo'jazgina qal'a bo'lib, shahar atrofidagi erlardan mo'l hosil olinar va shaharda savdo ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. (18.29)

O'zbek tarjmoni asliyatdagi metaforalarning birinchisini ekvivalent leksik birlik bilan va ikkinchisini "lively" so'zini tushurib o'girgan. Demak, tarjima matnida asliyatdagi metaforalar ifodalananmagan. Asliyatdagi "pleasant place" "mo'jazgina qal'a" "a lively trade" esa tarjima matnida oddiy "savdo" tarzida berilgan. G'.Salomov shunday degan edi: "agar tanlangan so'z asl nusxadagi so'zga muvofiq tushsa, o'sha so'zning mag'zida yashirinib yotgan ma'no bizning tilimizda tiriladi, aksincha, agar unga to'liq muvofiq bo'lmasa, fikrni noaniq va mujmal qilib qo'yishi mumkin." [4.166]. Umuman olganda, G'.Sotimov jumlada asliyatdagi metaforalarni tashlab tarjima qilish orqali muallif tomonidan berish niyat qilingan fikrni noaniq ifodalaydi. U "lively trade" so'z birikmasini "shahardagi qizg'in savdo" deya berishi ham mumkin edi. Bunda tarjimonga nima to'siq bo'lganligi aniq emas, chunki tarjimada "shahardagi qizg'in savdo" deya ifodalash uchun hech qanday qo'shimcha o'zgarishlar talab qilinmaydi.

Boshqa jummalarda ko'rganimiz kabi, bu parcha tarjimasida ham o'zbek mutarjimi asliyatdagi oddiy ifodani metafora vositasida bergen. Matnda berilgan "yaxshi yo'lga qo'yilgan" deya berilgan so'z birikmasida metafora mavjud. "Yo'lga qo'ymoq" so'z birikmasida aslida "yo'l" leksemasini o'z ma'nosidan chiqib ketib, "biror bir ish-harakatni boshlamoq va davomli boshqarmoq" ta'rifi bilan anglashilgan. Shu tomonidan ham bu birlikni majoziy ma'noda ifodalangan deyishga hech qanday shubha yo'q. Asliyatdagi "a lively trade" so'z birikmasini mutarjim "shaharda savdo ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan edi" tarzida ifodalashga harakat qilgan. Bu bilan, tarjimonda asliyatdagi "qizg'inlik, jo'shqinlik" tarjimada ifodalandi, degan xulosaga kelishiga turtki bo'lgandir.

Barcha tahlilga tortilgan jummalardan shu narsa ma'lumki, mutarjim asliyatdagi metaforalarni tarjima matnida ifodalay olmagan yoki ular qayta yaratilgan degan xulosaga kelish mumkin. To'g'ri, R.Pogioli aytganidek: "tarjima qilish o'g'zaki kompozitsiyaga noodatiy libos, o'zgargan tuzulish va asar ruhini o'zgartishga harakat qilishdir [6.137]. Demak, tarjimon tomonidan asliyat matnida birmuncha o'zgarishlarni kiritib, uni tarjima tilida so'zlashuvchi o'quvchi uchun tushunarli leksik birliklar bilan liboslantirish erkinligi mavjud. Ammo, bu tarjimonning mahorati, biliimi va tajribasiga bo'lgan to'la baho emas. G'.Sotimov "Bobur-Yo'lbars" tarjimasida metaforalarning aynan ifodasini bera olgan jummlalar ko'p. Ze'ro, ularni tahlilga tortish tarjimaga faqatgina tanqidiy emas, ijobjiy firkalarning borligini istifoda etishga xizmat qiladi. Ana shundaylardan bir nechtasini tahlilga qilsak.

H.Lamb:

The Tiger laid his spite against very few men, but Khusrau Shah was foremost among them. (18.47)

Ingliz tili izohli lug'atida "spite" so'zi "a feeling of wanting to upset someone or cause problems for them, especially because you think something is unfair" [3.1378] deya ta'riflanadi. Umuman olganda, ushbu so'zni o'zbek tiliga "nafrat" tarzida tarjima qilish mumkin. Bu so'zning yakka o'zi metafora hosil qilmagan, balki jumladagi boshqa so'zlar bilan birikuvdan hosil bo'lgan fe'lli birikma (lay his spite against very few men) orqali badii ko'chim ifodalangan.

Muallif asliyatda nafratni qanchalik darajada ekanligini ana shu so'z ifodasi orqali bergen. U ham "hatred" so'zini o'zini bersa bo'lar edi. "Hatred" so'zi hissiy nuqtai-nazardan "spite" so'ziga qaraganda juda kuchli nafratni ifodalaydi. H.Lamb Bobur shaxsiyatini o'rgangam yozuvchi sifatida "spite" so'zini qo'llashni ma'qul ko'rgan. Ya'ni, Bobur o'zining ashaddiy dushmanlariga ham juda kuchli nafratda bo'lmagan. Bunday haqiqatni bir necha hodisalar vositasida isbotlash mumkin. Xususan, Ibrohim Lo'diyini onasiga bo'lgan munosabat uning dushmanlariga bo'lgan nafrati qanday ekanligini ko'rsatib bera oladi. Garchi, ona Boburni zaharlagandan keyin ham uni avf qilish hodisasi mirzoni nafrati jilovlangan ekanligidan darak berar edi.

G'.Sotimov:

Bobur mirzo o'z raqiblarining kamdan-kamiga o'tli nafratini sochardi. Ularning ichida Xisravshoh alohida nafratga sazovor edi. (18.45)

Mutarjim asliyatdagi metaforani juda to'g'ri va aniq, lekin hissiy jihatdan kuchli ifodalagan. Ya'ni, Bobir mirzoning raqiblariga "o'tli nafratini sochardi" tarzidagi ifodasi tarjimada metaforani ifodalagan. Izohli lug'atda "o'tli" so'zining ko'chma ma'nolari bilan tahlil qilinganda, "zo'r haroratl, qaynoq" [8.461] degan ma'noda "kulgu, bo'sa" leksemalari bilan birqalikda ishlatalig'an. Demak, tarjimon "o'tli nafrat" birligi bilan Bobur mirzoning hissiyoti asliyatga nisbatan kuchli ifodalangan. Shunday bo'lsa-da, asliyatdagi metafora tarjimada o'z aksini topgan. Faqatgina, tarjimada yuqorida tilga olingen ayrim pragmatik ma'nodagi o'zgarishlar mavjud.

Bobir mirzo otasi vafotidan so'ng o'n ikki yoshda taxtga o'tiradi. Podshohlikning ilk kunlarida uning yurtiga tashqi kuchlardan yovlar bostirib kela boshlaydi. Ana shunday dushmanlardan biri Bobur mirzoning tog'asi Sulton Ahmad mirzo va uning yordamchisi Mir Ali Do'st. Bobur mirzo Mir Ali Do'st tag'oyini tasvirida shunday so'zlarni ishlataladi:

H.Lamb:

Yet except for falcon flying, he was worthless – money-seizing, strife-provoking, insincere, sharp of speech, and sour of face. (17.56)

Jumladagi ikki so'z birikmada metafora mavjud. Ular "sharp of speech" va "sore of face" frazeologik birliklaridir.

Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarining izohli lug'atida "sharp of speech" so'z birikmasi aynan alohida berilmagan, ammo bu idioma boshqa bir ko'rinishi aniq keltirilgan. Bu "sharp tongue"

ADABIYOTSHUNOSLIK

birikmasi hisoblanib, “tanqidiy, sovuqqon munosabatda bo’lingan” [2.601] ma’nosida ta’riflangan. So’z birikma tarkibidagi “sharp” so’zi “o’tkir, qattiq, keskin, qattiq tegadigan, achchiq, kinoyali” [5.456], “speech” esa “so’zlash qobiliyati, nutq, til” [5.479] deya o’zbek tiliga tarjima variantlari berilgan. Demak, ikki so’zning birikishidan “kinoyali nutq, achchiq til” deya tarjima qilish mumkin. Bu erda G’.Salomovning A.Y.Rojanskiydan keltirgan iqtibosini keltirish o’rinli: “Idiomalarni so’zma-so’z talqin qilish ularni boshqa tilga tarjima qilgandagina emas, balki shu tilning o’ziga “tarjima” qilganda ham hech qanday ma’no bermaydi.” [4.260] Umuman olganda, “sharp of speech” frazeologik birikmasi ingliz tilidagi idiomatik lug’atdagi ta’rifi to’g’ri. Shu ta’rifga tayanilsa, parchadagi so’z birikmasi majoziy ma’noda qo’llangan.

Ikkinci ko’chim “sore of face” so’z birikmasi bilan ifodalangan. “Sore” ingliz tilining izohli lug’atida Amerika Qo’shma Shtatlariada norasmiy tarzda “jahli chiqqan yoki ranjigan” [3.1365] ma’nolarda qo’llanishi berilgan. Idiomalar lug’atida esa “sore” so’zini o’zini ko’chma ma’noda “kimgadir jahli qilgan” [2, 627] tarzida ta’rif berilgan. Idiomatik lug’atda keltirilganidek, ingliz tilida “face”ning “sore” bo’lishi birikmada majoziylikni hosil qilgan.

G’.Sotimov:

Yaramas axloq-atvorli, baxil va fitnachi, badqavoq va munofiq, qaysar va qattiq so’z, yuzi sovuq kishi edi. (18.53)

Tarjimon asliyatdagi ikki metaforani birini kalkalash, ikkinchisini adekvat tarzda tarjima qilgan. Asliyatdagi “sharp of speech” so’z birikmasi “qattiq so’z” deya so’zma-so’z tarjima qilingan. O’zbek jamiyatni uchun “qattiq so’z” birikmasi bir muncha g’aliz. Bizningcha tarjimon “piching, kinoyali so’zlaydigan” deya o’girganda ma’qul ish bo’ldi.

Asliyatdagi “sore of face” so’z birikmasi o’zbek jamiyatida mavjud ekvivalent bilan berilgan. Qolaversa, asliyatdagi ma’no saqlangan. Muallif asliyatda Mir Ali Do’st tag’oyini “sore of face” tasviri ostida “insonga beparvo, samimi bo’lmagan munosabat” qiladigan insonga nisbatan qo’llaganligini yuqorida tahlil qilgan edik. O’zbekcha tarjimada ham “yuzi sovuq” so’z birikmasi xuddi shunday kontekstda keltirilgan.

Shunda Bobur mirzo Mir Ali Do’st tag’oyini “yaramas axloq-atvorli, baxil va fitnachi, badqavoq va munofiq, qaysar va kinoyali so’zlaydigan, yuzi sovuq kishi edi” tarzidagi tasviri o’zbekzabon o’quvchi uchun murakkablik tug’dirmas edi.

XULOSA

Yuqorida “Bobur-Yo’Ibars” romani asliyatida aniqlangan metaforalarni uning o’zkekcha tarjima variantida qanday ifoda etilganligini bir necha misollar bilan qiyosiy o’rganishga urindik. Tahlillarga ko’ra, mutarjim asliyatdagi metaforalar tarjimasida har doim muvaffaqiyatga erishmagan. Bunga bir necha faktorlar o’zining ta’sirini o’tkazgan. Avvalo, tarjimon oldida g’arb tilida bitilgan sharq mutafakkiri haqida biografik romanning tarjimasi masalasi turar edi. Zero, mutarjim Zahiriddin Muhammad Bobur haqida juda ko’p ma’lumotga ega. Bizningcha H.Lambdanda ko’ra ko’proq. Bunga yurtimizda yozilgan Bobur haqidagi asarlar va romanlarni: Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Maqsud Shayxzodaning “Bobur” dramasi, Mirkarim Osimning “Boburning bolaligi” va eng asosiysi Boburning memuar asari “Boburnoma”ni asliyatda o’rganib chiqqan. Buning ta’siri ostida “Babur the tiger” romani asliyatidagi metaforalar quyidagi bir necha tamoyillar bilan tarjima qilinishiga asos bor degan xulosaga kelindi:

- 1) Metaforalarning kattagina qismi so’zma-so’z (ya’ni kalkalab) tarjima qilish usuli bilan o’girilgan;
- 2) asliyatdagi o’z ma’nosida ifodalangan bazi so’z birikmalar tarjimada badiiy ko’chim bilan ifodalangan, ya’ni tarjimada metafora qayta yaratilgan;
- 3) asliyatdagi bazi metaforalar tarjimada ekvivalent so’z va so’z birikmalari bilan berilgan;
- 4) metaforalar tushurib qoldirib, tarjima qilingan.

Albatta, bu erda “tarjimada asliyatning badiiy-estetik quvvatini tiklash mas’uliyati uning asl nusxaga moddiy jihatdan aynan mosligidan voz kechib, vazifaviy uyg’unligini vujudga keltirish zaruratini tug’diradi” [1.65] degan fikr o’zining bor bo’y-bastini namoyon qilib turadi. Demak, mutarjimdan o’z ajdodi haqidagi asar tarjimasidagi ma’sulyat muallifdan ko’ra ulkanroq bo’lgan bo’lishi mumkin. Bunday xulosalar metonimiya va mobolag’a tarjimalariga ham taalluqli yoki yo’qligini tahlil qilish qiziq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси: «Фан» нашириёти, 2005.
2. Richard A.S. McGraw-Hill's Dictionary of American Idioms. (The Most Practical Reference to the Idiomatic and Verbal Expressions of Contemporary American English). McGraw-Hill Company Inc, 2005.
3. Macmillan English Dictionary for Advanced Learners, International Student Edition, - Macmillan Publishers Limited. 2006.
4. Саломов F. Тил ва таржима (Бадиий таржиманинг умумфилологик ва баъзи лингвистик масалалари). – Тошкент: Ўзбекистон фан нашириёти. 1966.
5. Inglizcha-O'zbekcha lug'at. Isaqov U., Rahimov M., Sobirov B., Temirov S., Isaqov Sh. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2017.
6. Pogoli R. The added artificer: In On Translation by Reuben Arthur Brower. – Harvard University Press, Cambridge, Massachusetts, 1959.
7. Reijnierse W.G. The value of deliberate metaphor. Phd dissertation. – University of Amsterdam.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6-jild. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
10. Meschonnic H. Ethics and Politics of Translating: In Reflective translation studies: Translation as critical reflection by Silvia Kadiu. – UCL Press, 2019.
11. Очилов Э. Таржимашунослик терминларининг изохли луғати. – Тошкент, 2014.
12. Боронина И.А. Поэтика классического японского стиха. – Москва: Наука, 1978.
13. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Ленинград: Просвещение, 1973.
14. Рофиева Г.Ю. Ўзбек тилидан француз тилига концептуал метафоралар таржимасининг ўзига хос ҳусусиятлари (Эркин Аъзам асарлари асосида). Филол.фун.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020.
15. Searle J.R. Expression and meaning, studies in the theory of speech acts. – Cambridge University Press, 1979.
16. Quronov D. Adabiyot nazaryasi asoslari. – Toshkent: "Navoiy universiteti" nashryoti. 2018.
17. Lamb H. Babur, the tiger: The first of Great Muguls. - USA, New York, 1961.
18. Бобур – Йўлбарс: Буюк бобурийларнинг биринчиси/Х.Ламб; таржимон F.Сотимов. – Тошкент "O'zbekiston", 2015.